“Supa” (Suffa) Xalqaro radioastronomik observatoriyasi faoliyatiga bag’ishlangan brifing o’tkazildi

Bugun, 1-aprel kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida “Supa” (Suffa) Xalqaro radioastronomik observatoriyasida olib borilayotgan ishlarga bag’ishlangan brifing o’tkazildi.

Respublikamiz hududidagi Supa platosida dengiz sathidan 2500-3000 m balandlikda joylashgan RT-70 radioastronomik observatoriyasi noyob ilmiy obyekt hisoblanadi.

Xalqaro observatoriya O’zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumatlari o’rtasidagi 1995-yil 27-iyulda Toshkent shahrida tuzilgan Supa yassi tog’ida Xalqaro radioastronomik observatoriyasini barpo etish to’g’risida”gi Bitimga asosan tashkil etilayotgan xalqaro ilmiy-tadqiqot tashkiloti hisoblanadi.

Xalqaro kelishuvga asosan, Supa platosi hududida radioshaffoflikni kecha-kunduz monitoring qilish bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va RT-70 radioteleskopini barpo etish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi RT-70 radioastronomik observatoriyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda mazkur ilmiy obyektda qurilish-rekonstruktsiya ishlari olib borilmoqda hamda Xalqaro observatoriya faoliyati bo’yicha Nizom tasdiqlandi.

Unga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasidan tashqari mazkur Nizomda nazarda tutilgan tartibda boshqa davlatlar ham Xalqaro observatoriyaning a’zosi bo’lishi mumkin.

Nizomga muvofiq, Observatoriya muassis davlatlarning ulushli ishtiroki printsiplariga asosan moliyalashtiriladi.

Shuningdek, Observatoriya o’z faoliyatini tartibga soluvchi ichki qoidalarini belgilaydi, axborot-noshirlik faoliyatini amalga oshiradi, “Internet” axborot-telekommunikatsiya tarmog’ida rasmiy saytiga ega bo’ladi.

Qurilayotgan majmuaning bosh instrumenti – to’la buriluvchi diametri 70 metrli antenna spektrning millimetrli to’lqin uzunligi diapazonining qisqa sohasida ishlovchi radioteleskopning adaptiv tizimli yangi avlodi hisoblanadi. RT-70 radioteleskopidan katta yuzali antenna nodir xususiyatiga ega asbob sifatida uzoqdagi apparatlar kosmik bazasi bilan aloqani ta’minlash uchun ham foydalanish mumkin.

Observatoriya tarkibiga RT-70 radioteleskopi va boshqa astronomik uskunalar, ilmiy ma’lumotlarni to’plash va ishlov berish tizimlari, bino va inshootlar, vaxta yashash qo’rg’onidan iborat bo’lgan radioastronomik

observatoriyasi, Toshkent va Moskva shaharlari va Zomin qo’rgonidagi ma’muriy, laboratoriya va xo’jalik binolariga, faoliyati Observatoriya direktori tomonidan tasdiqlanadigan alohida nizomlar bilan tartibga solinadigan Moskva shahridagi Rossiya bo’linmasiga, shuningdek, ilmiy bo’limlar, laboratoriyalar, muhandislik-texnik, ishlab chiqarish, ma’muriy-xo’jalik va boshqa yordamchi bo’linmalar kiradi.

Observatoriyaning faoliyat yo’nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- Yer va Koinotning fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarini olib borish;

- Observatoriyaning oliy malakali ilmiy va mudandis-texnik kadrlarini tayyorlash hamda ularning kasb malakasini oshirish;

- Observatoriyaga a’zo davlatlar ilmiy tashkilotlarining ilmiy-texnik salohiyatidan samarali foydalanish va rivojlantirish;

- xalqaro ilmiy loyihalarda qatnashish;

- amaliy xarakterga ega bo’lgan ilmiy natijalarni a’zo-davlatlarning ijtimoiy-idtisodiy masalalarini hal etish uchun qo’llash;

- asosiy faoliyatni moliyalashtirishning qo’shimcha manbalarini ta’minlash uchun a’zo-davlatlar tashkilotlari va muassasalarining ta’lim, ilmiy-ma’rifiy, ishlab chiqarish va boshqa xo’jalik faoliyatida ishtirok etish.

Observatoriyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- RT-70 radioteleskopi va boshqa astronomik uskunalar pretsizion tizimlari va ilmiy apparaturasining tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajarish;

- Supa yassi baland tog’i hududidagi spektrning millimetrli sohasidagi yer atmosferasi parametrlarini tadqiq etish;

- ilmiy tadqiqotlarni olib borish natijasida, xususan, ilmiy ishlarni chop etish, konferentsiya, simpoziumlarni o’tkazish, tadqiqotchi va mutaxassislarning hamkor ilmiy tashkilotlardagi stajirovkalarini tashkillashtirish orqali olingan axborot va tajriba bilan almashish;

- o’zaro manfaatdorlik asosidagi hamkorlik maqsadida a’zo-davlatlarning milliy va xalqaro ilmiy tashkilot va muassasalari bilan aloqalarni yo’lga qo’yish hamda munosabatlarni qo’llab-quvvatlash.

Shuningdek, Observatoriya kosmik apparatlar bilan to’lqinlar uzunligining qisqa to’lqinli diapazonida keng polosali aloqani ta’minlash; Yer sathidagi reper nuqtalarning yuqori aniqlikdagi koordinata-vaqtli ta’minoti, geodinamika va seysmika, asteroid-kometa xavfi obyektlarini aniqlash, kosmik fazoni nazorat qilish bilan shug’ullanadi.